YOSHLAR TADBIRKORLIK LOYIHALARINI RIVOJLANTIRISHNING EMPERIK TADQIQOTI

Maksumova Laziza Rustamovna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20077195

Annotatsiya. Mazkur maqolada loyiha tushunchasining nazariy-amaliy asoslari hamda uning asosiy xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Xususan, loyihaning hayot davri, tahlili, menejmenti va moliyalashtirish jarayonlari o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilgan. Loyihalarning o‘lchamlilik, vaqt bilan cheklanganlik, maqsadga yo‘naltirilganlik va ketma-ketlik kabi asosiy xususiyatlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, G‘arb, MDH va O‘zbekiston olimlarining yondashuvlari taqqosiy tahlil qilingan. Ayniqsa, yoshlar tadbirkorligi loyihalarida mazkur xususiyatlarni qo‘llashning ahamiyati alohida asoslangan. Tadqiqot natijalari loyihaviy boshqaruv samaradorligini oshirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.
Kalit so‘zlar: loyiha, loyiha hayot davri, loyiha menejmenti, loyiha tahlili, moliyalashtirish, samaradorlik, risk, yoshlar tadbirkorligi, innovatsiya, iqtisodiy o‘sish.

AN EMPIRICAL STUDY OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP PROJECTS

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical foundations of the project concept and its key characteristics. In particular, the project life cycle, project analysis, management, and financing processes are examined in an integrated manner. Core project features such as measurability, time limitation, goal orientation, and sequential implementation are discussed based on scientific literature. Additionally, a comparative analysis of approaches by Western, CIS, and Uzbek scholars is conducted. Special attention is given to the application of these characteristics in youth entrepreneurship projects. The findings of the study are significant for improving project management efficiency and fostering economic growth.
Key words: project, project life cycle, project management, project analysis, financing, efficiency, risk, youth entrepreneurship, innovation, economic growth.

Loyiha tushunchasi quyidagi muhim elementlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular loyihani shakllantirish, amalga oshirish va baholash jarayonlarining nazariy-amaliy asosini tashkil etadi. Jumladan, loyiha hayot davri (bosqichlari) loyihaning g‘oya paydo bo‘lishidan to uning yakunlanishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi; loyiha tahlili esa loyihaning iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, loyiha menejmenti resurslardan samarali foydalanish va belgilangan maqsadlarga erishishni ta’minlovchi boshqaruv tizimi sifatida namoyon bo‘ladi, loyihani moliyalashtirish esa loyihani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy manbalarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi (Kerzner, 2017).

Loyihalarning asosiy xususiyatlari ularni boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan farqlash imkonini beradi hamda loyihaviy yondashuvning nazariy asosini shakllantiradi. Ilmiy adabiyotlarda loyihalar quyidagi muhim xususiyatlar bilan tavsiflanadi (PMI, 2021; Kerzner, 2017):

1. O‘lchamlilik - loyiha natijalarini miqdoriy va sifat jihatidan baholash imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi. Bu xususiyat loyihaning samaradorligini aniqlash, uning iqtisodiy va

ijtimoiy natijalarini o‘lchash imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlar tadbirkorlik loyihalarida daromad, rentabellik, yaratilgan ish o‘rinlari kabi ko‘rsatkichlar orqali natijalar baholanadi (OECD, 2017).

2. Vaqt bo‘yicha cheklanganlik - har qanday loyiha aniq boshlanish va tugash muddatiga ega bo‘lib, bu uni doimiy faoliyatdan ajratib turadi. Loyihaning vaqt doirasida amalga oshirilishi resurslardan samarali foydalanish va rejalashtirish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi (PMI, 2021).

3. Ketma-ketlik (izchillik) - loyiha doirasidagi barcha faoliyat turlari muayyan mantiqiy ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi. Bu esa ish jarayonlarini muvofiqlashtirish, risklarni kamaytirish va natijalarga tizimli ravishda erishish imkonini yaratadi (Kerzner, 2017).

4. Maqsadga yo‘naltirilganlik - loyihadagi barcha resurslar, harakatlar va boshqaruv qarorlari yagona maqsadga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Mazkur xususiyat loyihaning strategik ahamiyatini belgilab, uning samaradorligini ta’minlaydi (World Bank, 2020).

Shuni ta’kidlash joizki, mazkur xususiyatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi loyihalarni samarali boshqarish va kutilgan natijalarga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar tadbirkorligi sohasida ushbu xususiyatlarni inobatga olish innovatsion g‘oyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini kengaytiradi.

G‘arb iqtisodiy va boshqaruv maktabida loyihalarning xususiyatlari, asosan, menejment va natijaga yo‘naltirilganlik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Jumladan, Harold Kerzner loyihalarni cheklangan vaqt, byudjet va resurslar doirasida amalga oshiriladigan, aniq maqsadga qaratilgan va unikal natijaga erishishni ko‘zlovchi faoliyat sifatida tavsiflaydi. Uning ta’kidlashicha, loyihaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: vaqt bilan cheklanganlik, maqsadga yo‘naltirilganlik va resurslar cheklanganligi (Kerzner, 2017).

Shu bilan birga, Project Management Institute (PMI) tomonidan ishlab chiqilgan PMBOK standartida loyihaning quyidagi asosiy belgilari ajratib ko‘rsatiladi:

- muvaqqatlik (vaqt bo‘yicha cheklanganlik);
- unikallik (yangi mahsulot yoki xizmat yaratish);
- bosqichma-bosqich amalga oshirilish (protsessual ketma-ketlik) (PMI, 2021).

G‘arb olimlari, shuningdek, loyihalarning o‘lchamlilik xususiyatiga ham alohida e’tibor qaratadilar. Masalan, World Bank metodologiyasida loyihalar samaradorligi iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali baholanishi zarurligi ta’kidlanadi (World Bank, 2020).

Bundan tashqari, zamonaviy yondashuvlarda loyihalarning yana bir muhim xususiyati sifatida risk va noaniqlik sharoitida amalga oshirilishi qayd etiladi. Bu esa loyihalarni boshqarishda risk-menejmentni alohida ahamiyatga ega qiladi.

MDH mamlakatlari olimlari loyihalarning xususiyatlarini ko‘proq investitsiya samaradorligi va iqtisodiy natijadorlik nuqtai nazaridan tahlil qiladilar.

Jumladan, V.V. Kovalev loyihalarning asosiy xususiyati sifatida ularning iqtisodiy natijaga yo‘naltirilganligini va moliyaviy samaradorligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, har qanday loyiha investitsiya resurslarini samarali joylashtirish vositasi hisoblanadi (Kovalev, 2002).

I.A. Blank esa loyihalarni kapital qo‘yilmalar bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqib, ularning quyidagi xususiyatlarini ajratadi:

- resurslar cheklanganligi;
- risk darajasining mavjudligi;
- vaqt bilan bog‘liqlik;
- natijalarning iqtisodiy baholanishi (Blank, 2008).

MDH olimlari, shuningdek, loyihalarning tizimlilik va kompleks xarakterga egaligini ta’kidlaydilar. YA’ni, loyihalar bir-biri bilan bog‘liq elementlardan iborat bo‘lib, ularni bir butun tizim sifatida boshqarish talab etiladi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar loyihalarning xususiyatlarini milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va bozor munosabatlarini rivojlantirish nuqtai nazaridan tahlil qiladilar.

Jumladan, A.O‘lmasov loyihalarning asosiy xususiyati sifatida resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy foydaga erishishni ko‘rsatadi. Uning fikricha, loyihalar iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning samarali shakli hisoblanadi (O‘lmasov, 2014).

SH.Shodmonov esa loyihalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya va innovatsiya jarayonlarini amalga oshirishning asosiy mexanizmi sifatida baholaydi. U loyihalarning quyidagi xususiyatlarini ta’kidlaydi:

- bozor talabiga moslashuvchanlik;
- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik;
- bandlikni ta’minlashdagi ahamiyat (Shodmonov, 2016).

Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda yoshlar tadbirkorligi nuqtai nazaridan loyihalarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari ajratib ko‘rsatiladi:

- innovatsion xarakter;
- yuqori risk darajasi;
- moliyaviy resurslarning cheklanganligi;
- bozorga kirishda institusional to‘siqlar mavjudligi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

- barcha maktablar loyihalarning vaqt va resurslar bilan cheklanganligini asosiy belgi sifatida e’tirof etadi;
- G‘arb olimlari menejment va unikallikka urg‘u beradi;
- MDH olimlari investitsiya samaradorligi va moliyaviy natijalarga ko‘proq e’tibor qaratadi;
- O‘zbekiston olimlari esa bozor sharoitiga moslashuvchanlik va ijtimoiy ahamiyatni alohida ta’kidlaydi.

Loyihalarning asosiy xususiyatlari bo‘yicha turli ilmiy maktablar qarashlari ularning ko‘p qirrali iqtisodiy kategoriya ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar tadbirkorligi loyihalarida ushbu xususiyatlarni chuqur anglash va amaliyotda qo‘llash innovatsion faoliyatni rivojlantirish, bandlikni oshirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Prinsiples of sorporate finanse. MsGraw-Hill, 2003.
4. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.
5. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
6. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
7. Publis Finanse: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
8. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.